

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.S.Shodiyeva	
Ijod va aqliy taraqqiyot muammosining sharq mutafakkirlari asarlaridagi talqini	424
M.G'.Ismoilov	
O'smirlarda familistik kompetensiyasini rivojlantirishning tamoyillari.....	429
N.X.Raxmankulova	
O'quvchilar tarbiyasini shakllantirishda ota-onalarga pedagogik bilim berish tizimining ahamiyati	433
M.Saminjonov	
Rasmiy-siyosiy qasamlar	439
A.A.Hakimov	
1358-1370 yillarda movarounnahrda kechgan hokimiyat uchun kurash jarayonlarining tarixiy manbalarda yoritilishi	444
Sh.T.Abbosova	
Yangi O'zbekiston taraqqiyoti bosqichida milliy g'oya barqarorlik kafolati	448
A.A.Parmonov	
Jismoniy madaniyat ta'limi sohasidagi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishning o'рни va ahamiyati.....	451
S.M.Abdullayev	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	456
S.M.Ro'zimurodov	
Axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllanishida oilaviy marosimlarning o'рни.....	460
M.A.Мирзарахимов	
Организация клиент-серверной технологической среды в образовании: анализ влияния и перспективы развития.....	464
Z.H.Ubaydullayeva	
Hissiyot ifodalovchi noverbal vositalarning lingvokulturologik tahlili	467
J.Xamroqulov	
Tyutorlar faoliyatini takomillashtirish asosida talabalarning ma'naviy-ahloqiy kompetentligi rivojlantirish.....	471
N.O.Yunusaliyeva	
O'quvchilarda ijtimoiy-axloqiy ideal haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishning mazmun-mohiyati ..	475
N.I.Suleymanova	
Ijtimoiy fan darslarida abu ali ibn sino yozgan falsafiy qissalaridan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati	481
Y.V.Lutfullina	
Ta'lim jarayonida tarbiya usullarini to'g'ri tanlashning ahamiyati.....	486
J.I.Xomidjonov, E.X.Bozorob	
Tibbiyotda (klinikada) tovush yordamidagi usullar bilan tekshirishni "Swot-Tahlil" metod asosida o'qitish	490
D.T.Tursunova	
Ijtimoiy faollik-talaba xotin-qizlar ijtimoiy ongini shakllantirishning ustuvor tamoyili va muhim omili sifatida	497
S.A.Sharipova	
Internet muloqoti yangi til hodisi sifatida.....	500
K.I.Марайимова	
Использование инновационных форм экскурсии в повышении социокультурной компетентности будущих учителей.....	506
B.B.Djalalov, K.P.Uzakov	
Ta'limning uzluksizligi mutaxassisning kasbiy kompetensiya darajasini oshirish omili sifatida.....	512
M.K.Saliyeva, R.F.Talipov, O.E.Ziyadullayev, S.I.Tirkasheva, L.Q.Ablaqulov	
Ayrim geteroatomli aldehydlarni $\text{InBr}_3/\text{Et}_3\text{N}/\text{Et}_2\text{O}$ katalitik sistemasida alkinillash jarayoni.....	519
A.Sh.Raximov	
Ichki yonuv dvigatellarining umumiy tuzilishi hamda 2 va 4 taktli dvigatellar ishchi sikllari, moylash tizimini tuzilishi, hamda ishlashi.....	527

IJOD VA AQLIY TARAQQIYOT MUAMMOSINING SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAGI TALQINI

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМЫ ТВОРЧЕСТВА И УМСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ В ТРУДАХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

THE INTERPRETATION OF THE PROBLEM OF CREATIVITY AND MENTAL DEVELOPMENT IN THE WORKS OF EASTERN THINKERS

Shodiyeva Rayhon Saydullayevna¹

¹Alfraganus universiteti pedagogika va psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi

Аннотация

Yuksak iste'dodli, aqlli, yaratuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan ijodkor yoshlar hozirgi davrda tan olinib qadrlanayotganligi Davlatimiz siyosatida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shunday ekan, kelajagimiz vorislari bo'lgan yoshlarning kreativligini oshirish, ularni imkon darajada ruyobga chiqarish davr talabidir. Ushbu maqolada Muhammad Payg'ambarning o'z hadislarida ilm olgan va yaxshilik qilishga intilgan kishilarni ulug'laganligi, Al-Farg'oniy, Al Kindiy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijod va aqliy taraqqiyot masalalariga doir nodir fikrlari bayon qilingan.

Аннотация

В настоящее время признаются и ценятся высокоталантливые, умные, творческие молодые люди, ярко отражается в политике нашего государства. Поэтому насущной необходимостью является повышение творческих способностей молодых людей, которые являются нашими будущими наследниками, и их максимальная реализация. В этой статье дано как Пророк Мухаммад в своих хадисах прославлял тех, кто приобретал знания и стремился творить добро, и также описываются ценные мысли мыслителей Центральной Азии по проблемам творчества и интеллектуального развития, как Аль-Фергани, Аль-Кинди, Фараби, Беруни, Ибн Сина и Алишера Навои.

Abstract

Currently, highly talented, intelligent, creative young people are recognized and valued, which is clearly reflected in the policy of our state. Therefore, the urgent need is to increase the creative abilities of young people, who are our future heirs, and their maximum realization. This article describes how the Prophet Muhammad in his hadiths glorified those who acquired knowledge and sought to do good, and also describes the valuable thoughts of Central Asian thinkers on the problems of creativity and intellectual development, like Al-Fergani, Al - Kindi, Farabi, Beruni, Ibn Sina and Alisher Navai.

Kalit so'zlar. aql, farosat, odob, tafakkur, aqliy faoliyat, ilm, aql-zakovat, kreativlik.

Ключевые слова. интеллект, проницательность, культура, мышление, умственная деятельность, знание, креативность.

Key words. intelligence, insight, culture, thinking, mental activity, knowledge, creativity.

KIRISH

Ma'lumki, har bir inson o'ziga xos, takrorlanmas individual psixologik xususiyatlarga ega. Ba'zilar yoshlik davridanoq zukkoligi, zehni o'tkirligi, kishilarni lol qoldiradigan aql-zakovatga egaligi bilan hammadan ajralib turadilar. Yuksak taraqqiyotga intilgan jamiyat iste'dodli yoshlarni shakllantiradi, uning to'liq namoyon bo'lishi uchun barcha moddiy, maishiy, ma'naviy shart-sharoitlarni imkon qadar yaratib beradi. Shunday ekan, har bir ijodkor shaxs o'z jamiyatining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jihatdan yanada rivojlanishi uchun qudratli omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, jamiyatning har bir a'zosi davlatimiz taraqqiyoti uchun o'z ulushini qo'sha olish darajasiga erishmogi lozim. Ayni haqiqat shundaki, aql-zakovatli, e'tiqodli, pok niyatli, irodasi mustahkam bo'lgan yoshlarni maqsad sari tanlagan yo'ldan hech bir kuch qaytara olmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Rivoyatlardan ma'lum bo'lishicha, Muhammad Payg'ambar aql va ilm jihatdan hech kimga nasib etmagan yuksak zakovatga ega bo'lib, buyuklik darajasiga erishganlar. Muhammad Payg'ambar o'z hadislarida – "Ilmga ilm olmoq yo'li bilan erishilgaydir. Ilmu hunarni Xitoydan bo'lsa ham o'rganinglar... Ilm egallang! – Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'iz damlarda yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda rahbar, qayg'uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda esa – quroldir", - deb ta'kidlaganlar. Shu bilan birga

Payg'ambarimiz "Kishini to'g'ri yo'lga boshlaydigan va egri yo'llardan qaytaradigan birdan bir tayanchi aql" - deb aytganlar [9].

Haqiqatdan ham aqlni ishlatgan kishi faqat ezgulik qiladi va evaziga qadr topadi. Chunki, "Ilmning yaxshisi-foydalisidir"-deyiladi hadislarida. "Bir soat ilm o'rganmoq, bir tun uyg'onib ibodat qilmoqdan hayrliroqdir. Bir kun ilm o'rganmoq esa, uch oy ro'za tutmoqdan hayrliroqdir" kabi hadislar esa har bir kishini ilm olmoqqa chorlaydi.

Faylasuf Ibrohim Haqqul Janob Payg'ambarning "Ilm o'rganish har bir mo'min uchun farzdir. Ilm tolibi uchun hamma narsa, hatto dengizdagi baliqlar ham gunohini kechirishni so'rab Oллоhga istig'for aytadi" -degan o'gitlariga binoan boshqa soha ilm vakillari qatori tasavvuf olimlari ham "kashfu karomat ilmi har bir musulmon uchun farzi ayndir", - degan da'voning isboti uchun kurashganlar [7].

Yuksak darajada aqliy hamda ijodkorlik qobiliyatlariga ega bo'lgan kishilar o'tmishda ham qadrlanib kelingan va ularning faoliyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Markaziy Osiyo mutafakkirlari aql, tafakkur, ijodkorlik hamda ularning shaxs va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida o'z fikr va mulohazalarini tegishli adabiyotlarda bayon etganlar.

O'rta asrlar davri mashhur mutafakkiri, yirik qomusiy olim Al Kindiy (801—867 y.) "Ta'riflar va narsalarning bayoni haqida", "Inson bilimlarining tasnifi", "Fanlar mohiyati va ularning tasnifi", "Arastu kitoblarining miqdori va falsafani o'rganish uchun zarur narsalar haqida", "Beshta mohiyat to'g'risida yozilgan kitob" kabi qator asarlar muallifidir. Al Kindiy o'z asarlarida bilish muammolariga alohida e'tiborini qaratgan bo'lib, bilish jonli mushohada va tafakkur orqali ro'yobga chiqadi, jonli mushohada bu - ayrim narsalarni bilishdir. Jonli mushohada bergan bilim beqarordir, chunki uning obyektini hisoblangan narsalar o'zgaruvchanlik tabiatiga egadir. Ular o'xshash yoki o'xshamas, to'liq, yoki noto'liq, kuchli yoki kuchsiz shakllarda namoyon bo'ladi. Aqliy bilish esa abadiydir, chunki u "narsalar haqiqatini" anglashga qaror qiladi. Haqiqatni zabt etish esa asta-sekin amalga oshadi. Haqiqat biron-bir kishining mulki emas, u ko'pchilikning sa'y-harakati tufayli qo'lga kiritiladi. Ilm va imon bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Kimki ilmni qadrlamas, ilm ahliga ihlos qo'ymas ekan, imon butunligiga da'vo qilishga haqqi yo'q, - deb ta'kidlagan [4]. Al Kindiyning g'oyalari Sharq va G'arb xalqlari ilmiy tafakkurining rivojiga samarali ta'sir etib kelmoqda.

O'rta Osiyo va Sharq uyg'onish davrining buyuk olimi, mutafakkir Abu Nasr Forobiy (873-950 y) insonlarga xos bo'lgan aql va aqliy faoliyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qilgan.

Forobiy ta'limotiga ko'ra, insondagi aql-zakovat (aqliy quvvat) borliqning turli-tuman ko'rinishlari in'ikosidir. Inson o'zidagi aql-zakovati yordamida avval yerda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar, o'zgarishlar sabablarini, so'ng esa osmon jismlarining sir-asrorini biladi. Insonning odam va olam to'g'risida to'plagan bilimlari, ya'ni aql vositasida yaratgan ma'naviy boyliklari hech qachon yo'q bo'lib ketmaydi. Forobiy ta'limotida aql konsepsiyasi yetakchi o'rinni egallaydi. Buyuk dahoning fikricha, haqiqatga – muhokama va aql orqali boriladi, ammo unga erishish uchun faqat aqlning o'zi kifoya emas, buning uchun ichki olamni poklab borish kerak [12].

Shu bilan birga Forobiy aql orqali tafakkur yordamida bilishning o'ziga xos jihatlarini aniqlashga harakat qilgan. U tafakkur mavhumlikka, umumiylikka, bevositalikka, ya'ni sezgilar orqali bilish xususiyatlariga ega bo'lib, olamdagi voqea va hodisalarning umumiy qonuniyatlarini bilib olishga yordam beruvchi yagona vositadir deb tushuntiradi. Forobiyning ta'limotiga ko'ra, tafakkur orqali inson borliqning sezgilarga ma'lum bo'lmagan tomonlarini, umumiy qonuniyatlarini hamda mohiyatini o'zlashtiradi va san'at, fan to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lib boradi.

Abu Rayhon Beruniyning ta'kidlashicha, inson aql sohibi ekanligi bilan hayvondan farqlanib turadi. Bu farq insonning jamiyatdagi turfa ehtiyojlari bilan izohlanadi. Mazkur ehtiyojlar eng avvalo undan "yashiringan narsani bilishga" intilishda va kelajakda bo'ladiganini ko'rib qo'yishda, nimani halokatga ketayotgan bo'lsa, oldindan hozirlanib, oldini olish imkoniyatiga ega bo'lishda ko'zga tashlanadi. Ruhiyat, ong va tafakkur barcha hodisalarning ta'siriga bog'liqdir, chunki inson tafakkuri doimo voqelikni bilishga qaratilgandir. "Ammo inson, - deydi Beruniy, - narsa va hodisalarning sifat xususiyatlari haqida bilim beruvchi hissiy bilish darajasida to'xtab qolmaydi, balki narsalarni chuqur va atroflicha bilish, shu narsalar haqida fikr yuritishni talab qiladi"[11]. Tafakkur hamda aqliy qobiliyat tufayli inson narsa va hodisalarni bir-biri bilan solishtiradi, qiyoslab ko'radi, u bilimlarining chinligini aniqlaydi, yangi bilimlarning obyektiv voqelikka mosligini tekshirib ko'radi. Shuningdek, aqliy qobiliyat tufayli inson u yoki bu darajada turli bilimlarni o'rganishga chanqoqlik his qiladi.

Aqliy qobiliyat tafakkur haqida muhim fikrlarni bildirgan allomalardan yana biri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino inson aqli haqidagi hikmatlarida “Ilm -narsalarning inson aqli yordami bilan o’rganilishidir”, “Bilim deb, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato yo’ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo’ladigan narsadir” - kabi nodir fikrlarini bayon etgan [8].

Ibn Sino “Tayr” asarida insonlarni do’stlikka, bilish, o’rganishga chaqiradi. “Bir-biringizdan bilim o’rganib, kamol topishingiz uchun dil pardasini ochib tashlanglar”, - deb ta’kidlaydi. Ibn Sinoning “Hayy ibn Yaqzon” qissasida kishi fe’l-atvorini, tabiatini chuqurroq tushunish uchun ilmi mantiqni bilishga da’vat etadi, chunki bu ilm kishi didini o’stiradi, fikr doirasini kengaytiradi. Ibn Sino bu haqida shunday deydi: “Farosat ilmi foydasi naqd ilmlardandir. Bu ilmni bilib olsang, u senga kishilarning pinhoni fe’l-atvorini bilib olishingga yordam beradi. Farosat ilmidan bahramand bo’lsang, juda o’tkir bo’lib ketasan”[3]. Garchi bu asar aql, ilm-fan, ma’rifat haqida hikoya qilsa-da, unda olim aql, farosat, odob kabi insoniy xususiyatlarni psixologik jihatdan mohirona ta’riflab bera olgan. Haqiqatdan ham olim ta’kidlaganidek, kishi farosat ilmidan bahramand bo’lgandagina har tomonlama kuchli va sermulohaza bo’ladi, aks holda esa inson ruhiy jihatdan tubanlikka yuz tutadi va ruhan ojiz bo’lib qoladi.

Ibn Sinoning ta’lim metodlari haqidagi ta’limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkur, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak, -degan g’oya yotadi.

Ibn Sino fanning juda ko’p, xilma-xil sohalariga qiziqqanini, imkoni boricha ularni bilishga uringanini yozib, fanning ko’p tarmoqlari, ko’p sohalar hali o’z kamolotiga yetmaganini quyidagicha yozadi:

Ko’nglimda ming quyosh nur sochdi, lekin,
Kamolga zarracha ham yo’l topmadi.

U odamlarni ilm -kamolotni egallash yo’lidagi qiyinchiliklardan cho’chimaslikka, dadil, sabot bilan qadam qo’yishga undaydi: “Odamlarning dadili kelajakdagi ishdan qo’rqmaydi. Eng qo’rqoq kishigina o’z kamolotini oxiriga yetkazmaydi” [13].

Yusuf Xos Xojib “Qutadg’u bilig” asarida inson qadri bilimdonligida ekanligi haqida hikmat borligini quyidagicha ta’riflaydi: “Odamzod naslining ulug’ligi - bilimdon. U aql idrok tufayli ne-ne tugunlarni yechishga qodir. O’quv-idrok va bilim egasi bo’lgan har o’quvni ulug’, shu ikkov ulug’lar kishini tulug’-deya uqtirib, har bir kishi tug’ilgan kundan boshlab zarur ta’lim-tarbiyani olmog’i lozimligini uqtiradi. “Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog’i shart. Shundagina ularning noo’rin xatti-harakatlariga berilishining oldi olinadi”, -deydi alloma [10].

Butun dunyoga mashhur ulug’ shoir Alisher Navoiy aqliy bilish masalalariga taalluqli bo’lgan fikrlarni ilgari surdi. Navoiy aqliy bilishning asosiy vazifasi – voqelikni, tabiatni o’rganish, yomonni yo’qotish, yaxshini barpo qilish, undan foydalanishdir deb uqtiradi. “Aqliy bilishning birinchi darajali vazifasi voqelikni to’g’ri aks ettirish, insonni shu olamda, shu hayotda baxtli, xurram hayot bilan ta’minlashdan iborat”, - deydi Navoiy. Navoiy insonni mavjud narsalar bilan bog’laydigan omil uning his (sezgi) a’zolaridir, deb bilish jarayonida sezgilarning o’rniga katta e’tibor qaratadi. Inson birinchi navbatda o’zining hissiy a’zolari orqali mavjud narsalar haqida ma’lumotlar oladi, shu tufayli hislar voqelikni bilish manbalaridan ekanligini ta’kidlaydi.

Navoiy odam tanasini bir qal’aga, mavjud voqelikni shu qal’ani o’rab olgan tashqi olamga o’xshatadi: aqlni shu qal’a saroyida turgan shoxga; besh his a’zolarini shu qal’ani mamlakat (tashqi olam) bilan bog’lab, xabar berib turadigan besh yo’lga, besh muxbirga o’xshatadi. Navoiyning o’z ta’biri bilan aytganda, besh his a’zolari quyidagilardir: 1-ko’z, ko’ra bilish qobiliyati (bosira); 2-quloq, eshitish a’zosi (somia); 3-sezish a’zosi (momisa); 4-hidlash a’zosi (shomia); 5-ta’m bilish a’zosi (zoiqa). Dunyoni bilish jarayoni ana shu his a’zolarining bergan ma’lumotlaridan boshlanadi. Bu ma’lumot va xabarlar ko’pincha birinchi taassurot, yuzaki, tartiblashmagan, hamisha to’xtovsiz va vaqti-vaqti bilan kelib turadigan bo’lganliklari uchun ularni (xofiza) miya to’playdi, saqlab yuradi. So’ngra esa tafakkur ishga tushadi va o’sha xabar ma’lumotlarni o’zicha ishlaydi, chuqurlashtiradi, kengaytiradi va muayyan xulosa chiqaradi.

U o’zining “Mahbub ul-qulub” asarida ilm o’qib uni ishlatmagan kishini shudgor qilib dehqonchilik qilmagan yoki urug’ sochib hosildan bahra olmagan kishiga o’xshatadi:

Ilm o’qib qilmag’on amal maqbul,
Dona sochib ko’tarmadi mahsul [1].

Zahiriddin Muxammad Boburni dunyoga tanitgan asari uning “Boburnomasi”dir. Asarning qamrovi juda keng, mazmuni mukammal. Bobur o‘z qarashlarida bola tarbiyasi masalalariga katta e’tibor qaratadi. U oilada ongli holda qattiqqo‘llik bilan bolalarning tartibli, intizomli, ongli bo‘lishlarini talab etadi [6].

Voiz Koshifiy “Axloqi muhsiniy” asarida aql bilan faoliyatning o‘zaro aloqasi haqida gapirib, barcha kishilar aqlga ehtiyoj sezishi, aql esa amaliy faoliyatga ehtiyoj sezishini ta’kidlaydi. Harakat, faoliyat aqlning ko‘zgusi sanaladi. Aql yordamida insoniy tajribalar, ma’naviy qadriyatlar yig‘ilib boradi va kelgusi avlodlarga yetkaziladi, - deydi [5].

Iste’dodli pedagog va jamoat arbobi Abdulla Avloniy aql, tafakkur va uni tarbiyalash masalasiga alohida to‘xtalib, “Fikr tarbiyasi eng – keraklisi, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan vazifadir. Fikr insonning sharofatli, g‘ayratli bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun bolaning fikrlash qobiliyatini o‘stirishda muallimlarning roli katta ahamiyatga ega”, - deb ta’kidlagan [2]. Shuningdek, Avloniy bolaning fikrini biron narsaga qaratish, o‘sha narsa ustida o‘ylashiga erishish uchun uning diqqatini yaqqol narsalarga yo‘naltirish, oldiga aniq masala qo‘yish va masalaga javob topish uchun unda ehtiyoj paydo qilish kerakligini bayon qilgan.

MUHOKAMA

Mutafakkirlarning yuqorida keltirilgan fikrlari aqliy qobiliyatning ahamiyati hamda uni shakllantirish yo‘llarini chuqur anglash imkonini beradi. Inson tafakkurining qudrati shundaki, uning yordamida voqea va hodisalarni bir-biriga solishtirish, tahlil qilish orqali rostni yolg‘ondan, adolatni adolatsizlikdan, yaxshini yomondan, haqiqatni esa nohaqlikdan ajratish mumkin. Ilm inson kamoloti uchun eng zarur fazilatlardan biri bo‘lib, ilmli inson xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqaruvchi omildir. Shunga ko‘ra, ilm olish har bir kishining insoniy burchidir. Darhaqiqat, buyuk allomalarning aqliy qobiliyatga ega bo‘lgan kishilarda yangilikni bilishga qiziqish va ichki intilish, ehtiyoj mavjud bo‘lishi haqidagi fikrlari inson aqlining naqadar serqirra imkoniyatlarga ega ekanligini his qilish imkonini beradi.

Bundan kelib chiqadiki, ilm egallashdan maqsad xalqning baxtu-saodati, farovon hayot kechirishi uchun xizmat qilishdan iboratdir. Shuningdek, haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo‘lish kerak, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmaydi, inson o‘z bilimining haqiqiylikini bilishi uchun esa mantiqni ham bilishi, teran fikrlashi, shu bilan birga kreativ qobiliyatlarini ham rivojlantirib borishi zarur.

XULOSA

Mutafakkirlarning aqliy qobiliyat bo‘yicha fikrlari tahlili asosida quyidagi muhim xulosalarga keldik:

Mutafakkirlar aqliy qobiliyatning xususiyatlari, ahamiyati, zarurati haqida juda asosli dalillar keltirib o‘tganlar. Bunday fikrlar g‘arb nuqtai nazaridan juda progressiv fikrlar hisoblanadi. Sharq mutafakkirlarining aqliy qobiliyat yuzasidan bildirgan fikrlari muammoni mukammal o‘rganish amaliy ishlarni olib borish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek aqliy qobiliyatni o‘rganish bilan bir qatorda uni rivojlantirish imkoniyatlarini axtarish vazifasini qo‘yadi. Mutafakkirlarning fikrlari asosida inson tafakkuri, aqliy qobiliyati tufayli ulug‘ ekanligini, uni to‘g‘ri, maqsadli rivojlantirish orqali insoniyat yetuklikka erishishi muqarrar ekanligini chuqur anglash mumkin. Aytish joizki, buyuk allomalarning aqliy qobiliyatga ega bo‘lgan kishilarda yangilikni bilishga qiziqish va ularni amalga oshirishga ichki intilish, ehtiyoj mavjud bo‘lishi haqidagi fikrlari inson aqlining naqadar serqirra imkoniyatlarga ega ekanligini ta’kidlanganidan dalolat beradi.

Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o‘z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma’naviy-ahloqiy sifatlarni ulug‘laydilar va shunday fazilatlarga ega bo‘lishga barchani chorlaydilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alisher Navoiy. Ma’xubul-klub. Asarlar, 12 tom. – T.: “Badiiy adabiёт”, 1966. – 60.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – B. 5-6. www.ziyouz.com.
3. Абу Али ибн Сино. Хайй ибн Яқзон. Абдусодиқ Ирисов таржимаси. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/abu-ali-ibn-sino/abu-ali-ibn-sino-ajj-ibn-ya-zon-falsaf/>
4. Абдуллаева М.Н., Абдурашидов М., Абилов У. ва бошқ. Фалсафадан қисқача изоҳли луғат. – Т.: Шарқ, 2004. – 23.
5. Алиқулов Х. Этические воззрения мыслителей Средней Азии и Хорасана. – Т.: Фан, 1992. - 35-36 б.
6. Атаева Н., Расулова Ф., Ҳасанов С. Умумий педагогика. – Т.: Фан ва технология, 2011. – 420 б.

7. Иброҳим Ҳаққул. Ирфон ва идрок. – Т.: Маънавият, 1998. –15 б.
8. Ирисов А. Абу Али ибн Синонинг фалсафий қарашлари. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 47 б.
9. Маҳкамов У. Ахлоқ-одоб сабоқлари. Т.: Фан, 1994 й. – 46 б.
10. Тўхлиев Б. Хос Юсуф Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асарига сўзбоши. – Т.: “Фан” нашриёти, 1971. – 115 б.
11. Шарипов А. Абу Райҳон Беруний. – Т.: Фан, 1999. – 114 б.
12. Юлдашев Ф. Форобий илмий меросида фалсафий тафаккур масаласи. // АДУ Илмий хабарнома, №3. 2016. – 47 б.
13. Қаямов Азиз. Абу Райҳон Беруний, Абу Али Ибн Сино. – Т.: Ёш гвардия, 1987. – 28 б.